



ONOMASTIKA VA LINGVOKULTUROLOGIYANING INTEGRATSIYASI: PEDAGOGIK PARADIGMA SIFATIDA

Rajabova Nilufar Egamberganovna,

Urganch davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim fakulteti, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida v.b dotsenti.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1607>

MAQOLA HAQIDA / О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 47

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

onomastika, lingvokulturologiya, pedagogik paradigma, integratsiya, lingvomadaniy kompetensiya, atoqli otlar, milliy qadriyat, tarixiy xotira, madaniy identitet, ta'lim mazmuni

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada onomastika va lingvokulturologiyaning integratsiyasi pedagogik paradigma sifatida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Onomastika atoqli otlar tizimini, jumladan, shaxs nomlari, joy nomlari, tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, etnonimlar, urbanonimlar va boshqa nom birliklarini o'rgansa, lingvokulturologiya til birliklari orqali xalqning madaniy xotirasi, qadriyatlar, mentaliteti, dunyoqarashi va ma'naviy tajribasini ochib beradi. Mazkur ikki yo'nalishning integratsiyasi ta'lim jarayonida tilni faqat grammatik yoki kommunikativ hodisa sifatida emas, balki madaniyat, tarix, tarbiya va milliy identitetni shakllantiruvchi vosita sifatida talqin qilish imkonini beradi. Maqolada onomastik birliklarning lingvokulturologik mazmuni, ularning ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari, o'quvchilarda lingvomadaniy kompetensiya, tarixiy xotira, milliy qadriyatlarga hurmat va madaniyatlararo muloqotga tayyorlikni shakllantirishdagi ahamiyati asoslanadi. Tadqiqotda tavsifiy, tahliliy, qiyosiy, lingvokulturologik va pedagogik modellashirish metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, onomastika va lingvokulturologiyaning integratsiyasi zamonaviy ta'lim uchun qadriyatga yo'naltirilgan, madaniy-ma'rifiy va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik paradigma sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 47

KEYWORDS

onomastics, linguoculturology, pedagogical paradigm, integration, linguocultural competence, proper names, national values, historical memory, cultural identity, educational content

ANNOTATION

This article provides a scientific and theoretical analysis of the integration of onomastics and linguoculturology as a pedagogical paradigm. Onomastics studies the system of proper names, including personal names, place names, names of historical monuments, pilgrimage sites, ethnonyms, urbanonyms and other nominative units, while linguoculturology reveals cultural memory, values, mentality, worldview and spiritual experience of a nation through language units. The integration of these two fields makes it possible to interpret language in the educational process not only as a grammatical or communicative phenomenon, but also as a means of forming culture, history, upbringing and national identity. The article substantiates the linguocultural content of onomastic units, their educational and moral potential, and their significance in developing students' linguocultural competence, historical memory, respect for national values and readiness for intercultural communication. Descriptive, analytical, comparative, linguocultural methods and pedagogical modeling were used in the research. The results show that the integration of onomastics and linguoculturology is of great importance for modern education as a value-oriented, cultural-educational and learner-centered pedagogical paradigm.

Kirish. Zamonaviy ta'lim taraqqiyoti shaxsni faqat bilim va ko'nikmalar majmuasi bilan qurollantirishni emas, balki uning madaniy dunyoqarashi, tarixiy xotirasi, milliy o'zlikni anglashi, axloqiy pozitsiyasi va madaniyatlararo muloqotga tayyorligini shakllantirishni ham asosiy vazifa sifatida belgilamoqda. Bu jarayonda til ta'limining o'rni alohida ahamiyatga ega, chunki til inson tafakkuri, madaniy tajribasi, ijtimoiy xotirasi va qadriyatlar tizimini ifodalovchi eng muhim vositadir. Tilni faqat grammatik me'yorlar yoki kommunikativ ko'nikmalar majmui sifatida talqin qilish bugungi ta'lim ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Til madaniyat bilan, madaniyat esa tarixiy xotira, qadriyat va tarbiya bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan onomastika va lingvokulturologiyaning integratsiyasi zamonaviy pedagogika uchun yangi nazariy-metodik imkoniyatlarni ochib beradi.

Onomastika atoqli otlar tizimini o'rganadigan tilshunoslik sohasi sifatida shaxs nomlari, joy nomlari, tarixiy obyektlar, ziyoratgohlar, etnonimlar, gidronimlar, urbanonimlar, ergonimlar va boshqa nominativ birliklarning kelib chiqishi, tuzilishi, ma'nosi va funksiyasini tahlil qiladi. Har bir atoqli ot muayyan tarixiy, geografik, ijtimoiy va madaniy ma'lumotni o'zida saqlaydi. Masalan, joy nomlari hududning tabiiy xususiyatlari, qadimiy kasb-hunar an'analari, etnik tarkibi, tarixiy voqealari yoki diniy-ma'rifiy tajribasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shaxs nomlari esa xalqning ezgulik, baxt, nur, bilim, jasorat, e'tiqod va orzu haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi. Demak, onomastik birliklar tilning nomlash tizimi bilan birga xalq xotirasining ham muhim belgilaridir.

Lingvokulturologiya esa til va madaniyatning o'zaro aloqasini o'rganadi. Bu yo'nalish til birliklarida xalq mentaliteti, qadriyatlar, axloqiy mezonlari, urf-odatlar, diniy-ma'rifiy qarashlari va estetik tafakkuri qanday aks etishini tahlil qiladi. Lingvokulturologik yondashuv tilni madaniyatning ifoda shakli, madaniyatni esa til orqali avloddan avlodga yetkaziladigan ijtimoiy-ma'naviy tajriba sifatida tushuntiradi. Shu sababli lingvokulturologiya pedagogik jarayonda tilni qadriyat, madaniy

xotira va shaxs tarbiyasi bilan bog'lab o'rganish uchun nazariy asos yaratadi.

Onomastika va lingvokulturologiyaning integratsiyasi aynan shu ikki yo'nalishning kesishgan nuqtasida yuzaga keladi. Atoqli otlar til tizimining birligi bo'lish bilan birga madaniy belgilar hamdir. Ular orqali xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, muqaddas makon haqidagi tasavvurlari, ajdodlarga hurmati, milliy qadriyatlar va madaniy identiteti namoyon bo'ladi. Pedagogik nuqtai nazardan bunday integratsiya ta'lim mazmunini hayotiy, madaniy, tarbiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan mazmun bilan boyitadi.

Adabiyotlar tahlili. Onomastika va lingvokulturologiyaning integratsiyasi masalasi zamonaviy tilshunoslik va pedagogika fanlarining kesishgan nuqtasida shakllanayotgan dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning nazariy asoslari avvalo til va madaniyat munosabatini o'rganuvchi klassik va zamonaviy lingvistik qarashlarga borib taqaladi. V. fon Gumboldt tilni "xalq ruhining ifodasi" sifatida talqin qilib, til va tafakkur, til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab bergan [6, 45–52-b.]. Ushbu g'oya keyingi lingvokulturologik tadqiqotlar uchun metodologik poydevor bo'lib xizmat qilgan.

E. Sepir va B. Uorfning lingvistik nisbiylik nazariyasi ham tilning madaniy idrok va dunyoqarash shakllanishidagi rolini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi [11, 120–134-b.]. Ularning fikricha, til insonning real dunyoni idrok etish usulini belgilaydi, bu esa lingvokulturologik yondashuvning shakllanishiga zamin yaratadi. A. Vejbitskaya esa til birliklarida madaniy semantikaning universal va milliy qatlamlarini aniqlash orqali lingvokulturologiyaning nazariy asoslarini yanada rivojlantirgan [4, 210–225-b.].

Lingvokulturologiya mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida V.V. Vorobyov tomonidan tizimli ravishda asoslab berilgan bo'lib, u til va madaniyatning o'zaro aloqasini o'rganishda kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi [5, 56–73-b.]. V.A. Maslova esa lingvokulturologiyani til birliklarida madaniy kodlar, stereotiplar va mental strukturalarni o'rganadigan fan sifatida tavsiflab, uning metodologik asoslarini kengaytirgan [8, 34–49-b.].

N.D. Arutyunova til va inson olami munosabatini tahlil qilib, tilning semantik, pragmatik va madaniy qatlamlarini ajratib ko'rsatadi [2, 102–118-b.].

Onomastika sohasida V.A. Nikonov, A.V. Superanskaya va E.L. Berezovichlarning ishlari fundamental ahamiyatga ega. V.A. Nikonov toponimika asoslarini ishlab chiqib, joy nomlarining tarixiy va lingvistik xususiyatlarini tahlil qilgan [9, 88–97-b.]. A.V. Superanskaya esa atqoli otlarning umumiy nazariyasini yaratib, ularni til tizimidagi alohida semantik kategoriya sifatida asoslab bergan [12, 145–160-b.]. E.L. Berezovichning etnolingvistik tadqiqotlari toponimlarning xalq madaniyati va etnik tafakkur bilan bog'liqligini ochib beradi [3, 201–219-b.].

Rus tilshunosligida onomastika terminologiyasi va tizimi N.V. Podolskaya tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u onomastik birliklarning tasnifi va terminologik apparatini aniqlashdirgan [10, 67–84-b.]. Bu esa keyingi integrativ tadqiqotlar uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, N.I. Tolstoyning etnolingvistik va mifologik yondashuvlari onomastik birliklarni xalq madaniyati va mifologik tafakkur bilan bog'liq holda o'rganish imkonini beradi [14, 155–173-b.].

O'zbek tilshunosligida onomastika va lingvokulturologiya masalalari E. Begmatov, S. Qorayev va N. Mahmudovlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. E. Begmatov o'zbek ismlari ma'nosi va ularning semantik qatlamlarini tahlil qilib, milliy antroponimikaning asoslarini ishlab chiqqan [16, 312–329-b.]. S. Qorayev toponimika sohasida O'zbekiston hududidagi joy nomlarining tarixiy-etimologik xususiyatlarini o'rgangan [17, 145–162-b.]. N. Mahmudov esa til va madaniyat munosabatini o'rganib, o'zbek lingvokulturologiyasining nazariy asoslarini shakllantirgan [18, 44–58-b.].

Shuningdek, Sh. Safarovning kognitiv tilshunoslikka oid qarashlari til birliklarining ong, tafakkur va madaniyat bilan bog'liqligini yoritishda muhim ahamiyatga ega [19, 27–39-b.]. Bu yondashuv lingvokulturologik tahlilni kognitiv paradigma bilan boyitadi.

Pedagogik jihatdan esa J.G. Yo'ldoshev va S.A. Usmonovlarning pedagogik texnologiyalar haqidagi ishlari ta'lim jarayonini integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etish zarurligini asoslaydi [20, 61–74-b.]. Bu esa onomastika va lingvokulturologiyani o'quv jarayoniga tatbiq etishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

A. V. Avronin, Y.N. Karaulov va S.G. Ter-Minasova ishlari tilning funksional, shaxsiy va madaniyatlararo kommunikativ jihatlarini o'rganishda muhim o'rin tutadi [1, 232–239-b.], [7, 98–112-b.], [13, 210–230-b.]. Ayniqsa, Karaulovning "til shaxsiyati" konsepsiyasi lingvokulturologik yondashuvda shaxsning til orqali madaniy identifikatsiyasini tushuntirishga xizmat qiladi [7, 150–168-b.].

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, onomastika va lingvokulturologiya alohida fanlar sifatida shakllangan bo'lsa-da, ularning integratsiyasi tilni madaniy-tarixiy, kognitiv va pedagogik hodisa sifatida o'rganish imkonini kengaytiradi. Bu integratsiya zamonaviy ta'limda shaxsning lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirish, milliy identitetni mustahkamlash va madaniyatlararo muloqotga tayyorlikni shakllantirishda muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodologiya. Tadqiqotda onomastika va lingvokulturologiya integratsiyasini pedagogik paradigma sifatida o'rganishda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Avvalo, nazariy-tahliliy metod yordamida onomastika, lingvokulturologiya va pedagogika fanlarida mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirildi. Ushbu yondashuv atqoli otlarning lingvistik tabiatini, lingvokulturologik mazmunini va ta'lim-tarbiya jarayonidagi funksiyasini bir butun tizimda ko'rib chiqishga imkon berdi.

Tavsifiy metod orqali onomastik birliklarning asosiy turlari, ularning madaniy-ma'rifiy xususiyatlari va o'quv jarayonida qo'llanish imkoniyatlari izohlandi. Qiyosiy metod onomastik va lingvokulturologik yondashuvlarning o'zaro farqli va umumiy jihatlarini aniqlashga xizmat qildi. Lingvokulturologik metod asosida atqoli otlarning xalq madaniyati, tarixiy xotirasi, qadriyatlar tizimi va mentaliteti bilan bog'liq ma'no qatlamlari tahlil qilindi. Pedagogik modellashtirish metodi yordamida onomastika va lingvokulturologiya integratsiyasiga asoslangan ta'lim paradigmasining mazmuniy, metodik va tarbiyaviy komponentlari nazariy jihatdan asoslandi.

Natijalar. Tadqiqotda integratsiya tushunchasi fanlararo qo'shilish yoki mavzularni mexanik birlashtirish sifatida emas, balki yangi sifat hosil qiluvchi ilmiy-pedagogik yondashuv sifatida talqin qilindi. Shu ma'noda onomastika lingvokulturologiya bilan uyg'unlashganda atqoli otlar faqat etimologik yoki semantik tahlil obyekti bo'lib qolmaydi, balki o'quvchining madaniy xotirasi, axloqiy qarashlari, milliy o'zligini anglashi va nutqiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantiruvchi kuchli didaktik vositaga aylanadi. Bunday yondashuv til birliklarini statik lingvistik material sifatida emas, balki dinamik madaniy axborot tashuvchi tizim sifatida idrok etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, onomastika va lingvokulturologiyaning integratsiyasi ta'lim mazmunida til, tarix, madaniyat va tarbiya birligini ta'minlaydigan muhim nazariy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu integratsiya orqali atqoli otlar oddiy nomlash birliklari emas, balki madaniy axborotni saqlovchi, tarixiy xotirani avlodlarni avlodga yetkazuvchi va shaxs dunyoqarashini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi didaktik resurs sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ular o'quvchini faqat til bilimlari bilan emas, balki madaniy tafakkur, tarixiy ong va qadriyatlar tizimi bilan ham boyitadi.

Onomastik birliklar lingvokulturologik yondashuvda xalqning madaniy kodlarini ochuvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Har bir ism, joy nomi, tarixiy obyekt yoki ziyoratgoh nomi muayyan madaniy tajriba, ijtimoiy xotira va ma'naviy qadriyat bilan bog'liqdir. Masalan, "ota", "bobo", "xo'ja", "shayx", "valiy", "mahalla", "qal'a", "tepa", "ariq", "obod" kabi komponentlar ishtirokidagi nomlar xalqning ijtimoiy tuzilishi, diniy qarashlari, tabiatga munosabati va tarixiy hayot tarzini ifodalaydi. Bunday nomlarni tahlil qilish o'quvchiga til birliklari ortida yashiringan madaniy qatlamlarni anglash, ularni tarixiy va ijtimoiy kontekstda idrok etish imkonini beradi. Natijada tilga bo'lgan munosabat faqat grammatik darajada emas, balki madaniy tafakkur darajasida ham shakllanadi.

Onomastika va lingvokulturologiya integratsiyasi o'quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Lingvomadaniy kompetensiya til birliklarining faqat lug'aviy yoki grammatik ma'nosini emas, balki ularning ortida turgan madaniy, tarixiy va qadriyatli mazmuni tushunish va izohlash qobiliyatini anglatadi. Atqoli otlarni lingvokulturologik asosda o'rganish o'quvchilarning nomlar ortidagi tarixiy shaxslar, joylar, voqealar, urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlarni anglashga yordam beradi. Bu esa til ta'limini yanada chuqurlashtiradi, uni hayotiy tajriba bilan bog'laydi hamda o'quvchining tafakkur doirasini kengaytiradi. Shu tariqa ta'lim jarayoni bir yoqlama bilim berishdan ko'ra, ko'p qatlamli madaniy-shaxsiy rivojlanish jarayoniga aylanadi.

Onomastik birliklarning yana bir muhim jihati ularning tarixiy xotirani shakllantirishdagi o'rni bilan bog'liqdir. Tarixiy xotira faqat darsliklarda berilgan sanalar va voqealar orqali emas, balki xalq hayotida yashab kelayotgan nomlar orqali ham shakllanadi va mustahkamlanadi. Shahar, qishloq, mahalla, ko'cha, ziyoratgoh, maktab yoki tarixiy obida nomlari o'quvchining bevosita yashash muhiti bilan tarix o'rtasidagi bog'liqlikni his qilishga yordam beradi. Bu esa tarixni mavhum bilim sifatida emas, balki jonli madaniy jarayon sifatida anglash imkonini yaratadi. Natijada o'quvchida o'z hududi va xalqining tarixiga nisbatan chuqurroq qiziqish va hurmat shakllanadi.

Onomastik birliklar xalqning qadriyatlar tizimini ham o'zida mujassam etadi. Shaxs nomlarida ezgu niyat, orzu-umid, axloqiy ideal, diniy e'tiqod va go'zallik haqidagi tasavvurlar aks etadi. Joy nomlarida esa tabiatga munosabat, tarixiy tajriba, kasb-hunar an'analari, ijtimoiy hayot va hududiy xotira mujassamlashadi. Lingvokulturologik tahlil ushbu ma'nolarni ochib berish orqali ularni o'quvchi shaxsning ichki qadriyatlar tizimiga aylantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon bevosita tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchida milliy o'zlikni anglash, ma'naviy mas'uliyat va axloqiy barqarorlikni shakllantiradi.

Bundan tashqari, integratsiya pedagogik jarayonning madaniyatlararo yo'nalishini ham sezilarli darajada kuchaytiradi. Turli xalqlarning nomlash an'analari, shaxs nomlari, joy nomlari va muqaddas makon nomlarini qiyosiy o'rganish o'quvchilarda madaniyatlararo muloqotga tayyorlikni rivojlantiradi. O'quvchi o'z xalqining nomlash tizimini chuqur anglagani sari boshqa xalqlarning nomlash madaniyatiga ham hurmat bilan yondashishni o'rganadi. Bu esa zamonaviy ta'limning global tafakkur va milliy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan konsepsiyasiga to'liq mos keladi hamda shaxsning ochiq, moslashuvchan va tolerant dunyoqarashga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Muhokama. Onomastika va lingvokulturologiyaning integratsiyasi pedagogik paradigma sifatida qaralganda, avvalo, "paradigma" tushunchasining mazmuniga e'tibor qarash lozim. Pedagogik paradigma ta'lim jarayonini tushunish, tashkil etish va baholashga yo'naltirilgan nazariy qarashlar, metodologik tamoyillar va amaliy yondashuvlar tizimidir. Shu ma'noda onomastik-lingvokulturologik paradigma til ta'limini madaniy xotira, milliy qadriyat va shaxs tarbiyasi bilan integratsiyalashgan holda tashkil etishni nazarda tutadi.

An'anaviy til ta'limida atqoli otlar ko'pincha grammatik mavzu doirasida, ya'ni bosh harf bilan yoziladigan so'zlar yoki nomlar guruhi sifatida o'rganiladi. Bunday yondashuv zarur bo'lsa-da, onomastik birliklarning madaniy, tarixiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini to'liq ochib bera olmaydi. Integrativ paradigma esa atqoli otlarni ko'p qatlamli madaniy matn sifatida tahlil qilishni taklif etadi. Masalan, joy nomini o'rganishda uning yozilishi bilan birga kelib chiqishi, tarixiy sababi,

mahalliy rivoyatlar bilan aloqasi, xalq xotirasidagi o'zni va tarbiyaviy mazmuni ham yoritiladi.

Bu paradigma ta'limda fanlararo bog'liqlikni kuchaytiradi. Onomastik birliklar ona tili, adabiyot, tarix, geografiya, tarbiya, madaniyatshunoslik va hatto san'at darslari bilan bog'lanishi mumkin. Shaxs nomlari adabiy obrazlar, tarixiy shaxslar va axloqiy ideallar bilan aloqador holda o'rganiladi. Joy nomlari geografik muhit, tarixiy voqealar va mahalliy madaniyat bilan bog'lanadi. Ziyoratgoh nomlari esa diniy-ma'rifiy qarashlar, tarixiy xotira va ma'naviy tarbiya bilan uyg'unlashadi. Natijada ta'lim mazmuni parchalanmagan, balki yaxlit madaniy-pedagogik tizimga aylanadi.

Onomastik-lingvokulturologik paradigma shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talablariga ham mos keladi. Chunki har bir o'quvchining ismi, tug'ilgan joyi, mahallasi, oilaviy tarixiga oid nomlar uning shaxsiy identiteti bilan bog'liq. O'quvchi o'z ismining ma'nosini, yashash joyi nomining kelib chiqishini yoki mahallasidagi tarixiy obyekt nomini o'rganishda, u bilimni o'z hayotiy tajribasi bilan bog'laydi. Bu esa ta'limni shaxsiy mazmun bilan boyitadi va o'quvchida o'rganilayotgan mavzuga nisbatan ichki qiziqish uyg'otadi.

Mazkur paradigma tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Onomastik birliklar orqali o'quvchilarda ajdodlar merosiga hurmat, Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga ehtirom, tarixiy xotira, madaniy mas'uliyat va ijtimoiy faollik kabi fazilatlarini shakllantirish mumkin. Nomlar o'quvchi ongida abstrakt qadriyatlarini konkret madaniy belgilarga bog'laydi. Masalan, "Pahlavon", "Ulug'bek", "Navoiy", "Buxoro", "Samarqand", "Xiva", "Oqmasjid", "Qal'a", "Mahalla" kabi nomlar muayyan tarixiy, madaniy va axloqiy assotsiatsiyalarni yuzaga chiqaradi. Shu orqali tarbiya jarayoni hayotiy va obrazli tus oladi.

Onomastika va lingvokulturologiya integratsiyasining yana bir afzalligi shundaki, u o'quvchilarda tanqidiy va tadqiqotchilik tafakkurini rivojlantiradi. Nomlarning kelib chiqishini o'rganish, turli manbalarni solishtirish, xalq rivoyati va ilmiy izoh o'rtasidagi farqni aniqlash, nomning hozirgi ijtimoiy-madaniy ahamiyatini tahlil qilish o'quvchini faol fikrlashga undaydi. Bu jarayonda o'quvchi tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi emas, balki madaniy ma'noni izlovchi va izohlovchi subyektga aylanadi.

Shu bilan birga, integrativ paradigmani amalga oshirishda ayrim metodik shartlarga rioya qilish zarur. Avvalo, onomastik materiallar yosh xususiyatiga mos tanlanishi kerak. Boshlang'ich sinflarda nomlarning sodda ma'nosi, hikoyaviy talqini va tarbiyaviy mazmuni ustuvor bo'lsa, yuqori sinflar va oliy ta'limda tarixiy-etimologik, semantik, qiyosiy va lingvokulturologik tahlil chuqurlashtiriladi. Ikkinchidan, materiallar ilmiy asoslangan bo'lishi lozim. Har bir nomni izohlashda dalillangan etimologiya, tarixiy manba, xalq rivoyati va zamonaviy talqin o'rtasidagi nisbat aniq ko'rsatilishi kerak. Uchinchidan, onomastik materiallar tarbiyaviy maqsad bilan bog'lanishi, ammo sun'iy nasihatgo'ylikka aylanib ketmasligi lozim. Nomning tarbiyaviy ta'siri uning tabiiy madaniy mazmuni orqali ochilganda samarali bo'ladi.

Ushbu paradigma raqamli ta'lim muhitida ham keng imkoniyatlarga ega. Elektron onomastik lug'atlar, interaktiv xaritalar, mahalliy nomlar bazasi, virtual ekskursiyalar, multimedia darsliklar va raqamli loyihalar orqali o'quvchilar nomlarning tarixi va madaniy mazmunini mustaqil o'rganishlari mumkin. Masalan, o'quvchilar o'z mahallasi yoki

qishlog'idagi joy nomlarini to'plash, ularning ma'nosini izohlash, xaritada belgilash va kichik tadqiqot materiali tayyorlash orqali onomastik-lingvokulturologik kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Bu esa ta'limni interfaol, ijodiy va amaliy faoliyatga aylantiradi.

Onomastika va lingvokulturologiya integratsiyasi nafaqat ta'limni, balki milliy tarbiya tizimi uchun ham konseptual ahamiyatga ega. Chunki bu yondashuv o'quvchi ongida til, tarix va madaniyatni ajralmas birlik sifatida shakllantiradi. O'quvchi o'z tilidagi nomlarni tushungan sari xalqining tarixini, qadriyatlarini va madaniy merosini chuqurroq anglaydi. Bu esa milliy o'zlikni anglash va madaniy mas'uliyatning shakllanishiga olib keladi.

Onomastika va lingvokulturologiyaning integratsiyasi zamonaviy ta'lim uchun muhim pedagogik paradigma sifatida qaralishi mumkin. Ushbu paradigma tilni faqat grammatik tizim yoki kommunikativ vosita sifatida emas, balki madaniyat, tarixiy xotira, milliy qadriyat va shaxs tarbiyasini shakllantiruvchi ko'p qirrali ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida talqin qiladi. Atoqli otlar lingvokulturologik yondashuv asosida o'rganilganda ular xalqning madaniy kodlari, tarixiy tajribasi, ma'naviy qadriyatlarini va identitetini ochib beruvchi muhim didaktik resursga aylanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, onomastik-lingvokulturologik integratsiya o'quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish, tarixiy xotirani mustahkamlash, milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish, madaniyatlararo muloqotga tayyorlikni oshirish va ta'lim mazmunini hayotiyashtirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv ona tili, adabiyot, tarix, geografiya, tarbiya va madaniyatshunoslik fanlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi.

Xulosa. Onomastika va lingvokulturologiyaning integratsiyasi zamonaviy tilshunoslik hamda pedagogika fanlari kesishmasida shakllanayotgan muhim ilmiy-nazariy yondashuvlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu integratsiya tilni faqat kommunikativ yoki grammatik tizim sifatida emas, balki madaniy xotira, tarixiy tajriba va milliy qadriyatlarni ifodalovchi murakkab ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, atoqli otlar lingvokulturologik yondashuv asosida o'rganilganda, ular oddiy nominativ birlik emas, balki xalqning madaniy kodlarini, tarixiy ongini va ma'naviy dunyosini aks ettiruvchi ko'p qatlamli til birliklariga aylanadi. Bu esa o'quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish, milliy o'zlikni anglashni chuqurlashtirish hamda tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, onomastika va lingvokulturologiya integratsiyasi ta'lim jarayonida fanlararo bog'liqlikni kuchaytiradi, til, tarix, madaniyat va tarbiya uyg'unligini ta'minlaydi. Bu yondashuv o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol tadqiqotchiga aylantirib, unda mustaqil tahlil, tanqidiy fikrlash va madaniy izlanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Onomastik-lingvokulturologik paradigma zamonaviy ta'limning shaxsga yo'naltirilgan, qadriyatga asoslangan va madaniy-integrativ yo'nalishini mustahkamlovchi muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda o'quv dasturlari, metodik ishlanmalar va raqamli ta'lim resurslarini takomillashtirish ta'lim samaradorligini oshirish hamda milliy-madaniy merosni chuqur anglaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Авронин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка. — Л.: Наука, 1975. — 276 с.
2. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. — М.: Языки русской культуры, 1999. — 896 с.
3. Березович Е.Л. Русская топонимия в этнолингвистическом аспекте. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2000. — 532 с.
4. Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. — М.: Русские словари, 1996. — 416 с.
5. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. — М.: Изд-во РУДН, 1997. — 331 с.
6. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. — М.: Прогресс, 1984. — 397 с.
7. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. — М.: Наука, 1987. — 263 с.
8. Маслова В.А. Лингвокультурология. — М.: Академия, 2001. — 208 с.
9. Никонов В.А. Введение в топонимику. — М.: Наука, 1965. — 179 с.
10. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. — М.: Наука, 1988. — 192 с.

11. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. — М.: Прогресс, 1993. — 656 с.
12. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. — М.: Наука, 1973. — 366 с.
13. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. — М.: Слово, 2000. — 624 с.
14. Толстой Н.И. Язык и народная культура: очерки по славянской мифологии и этнолингвистике. — М.: Индрик, 1995. — 512 с.
15. Хожиев А. Тилшunoslik terminlarining izohli lug'ati. — Toshkent: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. — 168 б.
16. Begmatov E. O'zbek ismlari ma'nosi. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. — 608 b.
17. Qorayev S. Toponimika. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. — 320 b.
18. Mahmudov N. Til va madaniyat. — Toshkent: O'zbekiston, 1992. — 112 b.
19. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. — Jizzax: Sangzor, 2006. — 91 b.
20. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2004. — 104 b.